

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



ILMIY  
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY





# NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

## ILMIY AXBOROTNOMASI

### Bosh muharrir

Turg'unov Sobitxon  
Toshpo'latovich  
Pedagogika fanlari doktori,  
professor

### Mas'ul muharrir

Rasulov A'zamjon Avazjonovich  
Texnika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent

### Mas'ul muharrir o'rinbosari

Imomov Otabek  
Normirzayevich  
Biologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent

### Texnik muharrir

Xoshimov Sardorbek Nozimjon  
o'g'li

### "NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ"

2019-yildan boshlab O'zbekiston  
Respublikasi Oliy attestatsiya  
komissiyasi Rayosati qarori  
bilan quyidagi fan sohalari  
bo'yicha OAKning  
dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya  
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga  
kiritilgan.

01.00.00-Fizika-matematika  
fanlari (14)

02.00.00-Kimyo fanlari (18)

03.00.00-Biologiya fanlari (17)

09.00.00-Falsafa fanlari (24)

10.00.00-Filologiya fanlari (26)

13.00.00-Pedagogika  
fanlari (30)

### Tahrir hay'ati a'zolari

#### Fizika-matematika fanlari:

Xatamov Nosirjon Muydinovich, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent  
Abdulazizov Baxromjon Toshmirza o'g'li, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent  
Sattarov Iskandar Abu-alievich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Dexqonov Farrux Nuriddin o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Boytilloyev Dilmurod Axmataliyevich, fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy  
xodim  
Baymatov Paziljon Jamoldinovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent  
Davlatov Abror Borijon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent  
Inoyatov Shukurillo Turg'unboyevich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
dotsent  
Jalolov Ravshan Maxmudjonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
dotsent  
Xolboyev Azamat G'anisherjon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Maxammadaliyev Muxtor Tursunmuxammad o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

#### Kimyo fanlari:

Abdullayev Shavkat Vaxidovich, kimyo fanlari doktori, professor  
Sultonov Boxodir Elbekovich, kimyo fanlari doktori, professor  
Karimov Abdurashid Musaxonovich, kimyo fanlari doktori, professor  
Xolmatov Dilshod Sottorjonovich, texnika fanlari doktori, dotsent  
Sattarov Tulqinjon Abdusattor o'g'li, texnika fanlari nomzodi, dotsent  
Muradov Murod Toxirjonovich, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori

#### Biologiya fanlari

Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, biologiya fanlari doktori, professor, akademik  
Dexqonov Davron Burxonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent  
Batoshov Avazbek Risqulovich, biologiya fanlari doktori, professor  
Turginov Orzimat Turdimatovich, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim  
Komilov Doniyor Jo'rayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Egamberdiyev Mehmonjon Xudoyberdiyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
dotsent  
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

#### Texnika fanlari

Ataxanov Shuhrat Nuriddinovich, texnika fanlari doktori, professor  
Abdullayev Olim Gulamjanovich, texnika fanlari doktori, dotsent  
Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Jo'rayev Sherali Umarjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

#### Qishloq xo'jaligi fanlari

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent  
Turg'unov Muzaffar Mirzaraxmatovich, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

#### Tarix fanlari

Rasulov Abdullajon Nuritdinovich, tarix fanlari doktori, professor  
Dexkanov Narimon Burxonjonovich, siyosiy fanlari doktori, professor  
Haydaraliyev Shuhrat Abdulazizovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Madraximov Zoxid Sharofovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Xalmuratov Baxtiyor Rejivaliyevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent  
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

“NamDU ilmiy axborotnomasi –  
Научный вестник НамГУ”  
jurnali O‘zbekiston Matbuot va  
axborot agentligining  
17.05.2016-yildagi

08-0075 -raqamli guvohnomasi  
hamda O‘zbekiston  
Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
(AOKA) tomonidan 2020-yil  
29-avgust kuni

1106-sonli guvohnomaga binoan  
chop etiladi. “NamDU Ilmiy  
Axborotnomasi” elektron nashr  
sifatida xalqaro standart turkum  
raqami  
(ISSN-2181-1458) ga ega.

Ilmiy axborotnomaning  
2025-3-soni NamDU  
Muvofiqlashtiruvchi  
Kengashining 2025-yil  
18-martdagi 3-sonli yig‘ilishida  
muhokama qilinib, ilmiy  
to‘plam sifatida chop etishga  
tavsiya etilgan  
(Bayonnoma № 3).

Maqolalarning ilmiy saviyasi va  
keltirilgan ma‘lumotlar uchun  
mualliflar javobgar hisoblanadi.  
Jurnal har oyda o‘zbek, rus va  
ingliz tillarida elektron shaklda  
chop etiladi.

**Maqolalar quyidagi rasmiy  
web sahifa orqali qabul  
qilinadi:**  
[journal.namdu.uz](http://journal.namdu.uz)

**Tahririyat manzili:**  
Namangan shahar, Boburshox  
ko‘chasi, 161-uy  
**e-mail:** science@namdu.uz

### Iqtisodiyot fanlari

Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Baymirzayev Dilmurod Nematovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent  
Yoqubjonova Xulkaroy Yoqubovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent  
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

### Falsafa fanlari

Talapov Baxriddin Alijanovich, falsafa fanlari doktori, professor  
Jo‘rayev Ro‘zimat To‘xtasinov, siyosiy fanlari doktori, professor  
Gaffarova Gulchehra Gulamjanovna, falsafa fanlari doktori, professor  
G‘apparov Elyorjon Otabekovich, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent  
Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent  
Muydinova Moxira Mukumjanovna, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

### Filologiya fanlari

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich, filologiya fanlari doktori, professor  
Jafarov Botir Sattarovich, filologiya fanlari doktori, professor  
Sadikov Zoxid Yaqubjanovich, filologiya fanlari doktori, professor  
Dosbayeva Nargiza Turg‘unpo‘latovna, filologiya fanlari doktori, professor  
Tojiboyev Ilxomjon Usmonovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
Karimova Farida Isakovna, filologiya fanlari doktori, dotsent  
Siddiqov Qosimjon Abilovich, filologiya fanlari nomzodi, professor  
Darvishov Ibroxim O‘rmanovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent  
Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent  
Yuldashev Otabek Toshpulat o‘g‘li, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

### Geografiya fanlari

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich, geografiya fanlari doktori, dotsent  
Nazarov Abdug‘affor Abdujabborovich, geografiya fanlari doktori, dotsent  
Mirzaaxmedov Xamidullo Saydamatovich, geografiya fanlari nomzodi, dotsent  
Soliyev Iqboljon Raxmonberdiyevich, geologiya-minerologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, PhD

### Pedagogika fanlari

Asqarova O‘g‘iloy Mamashakirovna, pedagogika fanlari doktori, professor  
Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovana, pedagogika fanlari doktori, professor  
Muminova Dilafro‘z Akbaraliyevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Ismoilov Turobjon Umirzaqovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Hamidova Muxayyoxon Obidovna, filologiya fanlari nomzodi, professor  
Shodmanov Qodirjon Odilxanovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Toshibekova Munajat Xoshimovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent  
Madaminov Baxodir Sharifjonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Urinov Bahrom Jamoliddinovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
Sarimsakova Dilafuz Muhammadjonovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
dotsent  
Axmedov Bexzod Madaminjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
Rashidova Nodira Habibullayevna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

### Tibbiyot fanlari

Abdullayev G‘ofurjon Rahimjanovich, biologiya fanlari doktori, professor  
Nurmatov Yodgormirza Xatammirzayevich, tibbiyot fanlari doktori  
Abdullayev Ulug‘bek Ubaydullayevich, tibbiyot fanlari nomzodi  
Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

NAMANGAN DAVLAT  
UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]  
ISSN:2181-1458  
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA  
journal.namdu.uz  
PHILOSOPHICAL

Qaxharov Siyovush Xudoyor o'g'li

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

### HARBIY MADANIYAT SHAKLLANISHI VA UNING TA'LIMDAGI O'RNI.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada harbiy madaniyatning mazmuni, uning shakllanish jarayonlari hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Harbiy madaniyat – bu faqatgina harbiy bilim va ko'nikmalar emas, balki vatanparvarlik, intizom, ma'naviy-axloqiy tarbiya kabi qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Maqolada harbiy madaniyatni yosh avlod ongiga singdirishda ta'lim muassasalarining roli, xususan, harbiy-patriotik tarbiya orqali shaxs kamolotini ta'minlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda harbiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** Harbiy madaniyat, vatanparvarlik, ta'lim tizimi, intizom, ma'naviy tarbiya, harbiy tarbiya, shaxs kamoloti, qadriyatlar, o'quv-tarbiya jarayoni, milliy ong va o'zlik.

Каххаров Сиявуш Худоёр угли

независимого исследователя Наманганского государственного университета

### ФОРМИРОВАНИЕ ВОЕННОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ РОЛ В ОБРАЗОВАНИИ.

**Аннотация:** В данной статье анализируется содержание военной культуры, процессы ее формирования и значение в системе образования. Военная культура – это не только военные знания и навыки, но и такие ценности, как патриотизм, дисциплина, духовно-нравственное воспитание. В статье особо подчеркивается роль образовательных учреждений в внедрении военной культуры в сознание молодого поколения, в частности, их значение в обеспечении личностного развития посредством военно-патриотического воспитания. Также даны рекомендации по развитию военной культуры в современных условиях.

**Ключевые слова:** Военная культура, патриотизм, система образования, дисциплина, духовное воспитание, военное воспитание, личностное развитие, ценности, учебно-воспитательный процесс, национальное сознание и самосознание.

Kakharov Siyavush Khudoyarovich

independent researcher of Namangan State University

### THE FORMATION OF MILITARY CULTURE AND ITS ROLE IN EDUCATION.

**Abstract:** This article analyzes the content of military culture, the processes of its formation, and its significance in the education system. Military culture encompasses not only military knowledge and skills but also values such as patriotism, discipline, and moral and ethical education. The article specifically emphasizes the role of educational institutions in instilling military culture in the minds of the younger generation, particularly its importance in ensuring personal development through military-patriotic education. Recommendations for the development of military culture in modern conditions are also given.

**Keywords:** Military culture, patriotism, education system, discipline, moral education, military education, personal development, values, educational process, national consciousness and identity.

#### Kirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda harbiy ta'lim tizimini, harbiy ilm-fanni takomillashtirish, zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarga harbiy ta'lim sir-sinoatlarini chuqur o'rgatishda yetuk kadrlar masalasi dolzarb ahamiyatga ega sanaladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bu maxsus ta'lim masukanlarida tahsil olayotgan farzandlarimiz qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama

kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san'atidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi"[1:387]. Bu esa bizningcha, yoshlarda harbiy madaniyatni shakllanishida ta'limdagi o'rni muhim ekanligini anglatadi. Harbiy ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichi T.Kun nazariyasidagi paradigmalarning siljishi davridagi bosqich sifatida favqulodda fan davrining tavsifiga mos keladi. "Uning atributlari eski fanning inqirozi (mazmun tomondan-yetakchi usullarning

ziddiyatlari, hissiy va irodaviy tomondan - ilmiy jamoatchilik tomonidan ishonchni yo'qotish), inqilobiy ilmiy farazlar va yechimlarning mavjudligi bilan ko'zga tashlanadi"[2:89]. Bu esa tadqiqotchilar fikricha, "harbiy ta'limning hozirgi paradigmasi jamiyat va armiyaning uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarining mahsulidir, ular orasida harbiy fanning rivojlanishi faqat omillardan biridir. Harbiy ta'lim paradigmasi mohiyatan ilmiy-konseptual sxema bo'lib, harbiy o'qituvchilarning nazariy va amaliy faoliyati uchun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi, harbiy ta'lim paradigmasi evristik jihatdan cheklangan vaqt uchun amal qiladi"[3:121]. Bizningcha, mazkur masalani ochib berish jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko'plab talablarni qo'yishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab masaladir.

### Mavzuning o'rganilganligi

Ushbu mavzu yuzasidan ni mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borganyu Xususan Jo'raev A. O'zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy ta'lim va harbiy kadrlar tayyorlash bo'yichab Rahimov B.R. harbiy pedagogika va harbiy psixologiya sohasida, Qurbonov Sh.X. milliy armiya, harbiy an'analar va ularning ta'lim tizimiga ta'siri bo'yicha, Nazarov M.H. o'quv muassasalarida harbiy-milliy tarbiyani shakllantirish borasida, xorijlik olimlardan, Semyuel Xantingtonning "The Soldier and the State" asarida harbiy madaniyat, harbiy kasb etikasi va uning jamiyatdagi roli haqida, Morris Janovis, harbiy institutsiyalar va ularning madaniyat bilan bog'liq jihatlarini ("The Professional Soldier"), Maykl Fuko to'g'ridan-to'g'ri harbiy madaniyatni o'rganmagan bo'lsa-da, uning "dissiplina" va "hokimiyat" haqidagi nazariyalari harbiy tizim va madaniyatni tahlil qilishda, Kritofer Danker harbiy sotsiologiya va harbiy kadrlar instituti haqida, izlanishlar olib borgan. Antoni King harbiy kasb, operatsiyalar va harbiy komandirlik madaniyati kabi mavzuning ilmiy va amaliy jihatlarini o'zining maqolalarida va asarlarida tahlil qilib bergan.

### Tadqiqot uslublari

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, kontent tahlil, metematik statistik uslublar.

### Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi

Mazkur jarayonga har tomonlama tayyor turish uchun O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlariga ko'ra yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qaroriga ko'ra "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025

yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasi qabul qilingan. Unda ta'kidlanishicha, "O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilga rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030 yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020 yil dekabr oyida tashkil etilgan "O'zbekiston yoshlari" forumida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqildi. Bu bilan Vatanni himoya qilish, uni asrash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya"si qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasi ko'rib chiqilgan[4]. Ijtimoiy taraqqiyotga ko'ra hozirgi vaqtda jismoniy kuch yoki qurol mahorati emas, balki insonning intellektual qobiliyatlari tobora muhim rol o'ynamoqda. Natijada harbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni tobora tezlasha boshladi.

Tadqiqotchi olimlar fikricha, "Ta'lim insonni rivojlantirishning eng muhim omili sifatida har qanday mamlakatda hozirgi davr uchun munosib bo'lgan aholi turmush darajasi va sifatiga erishish, ish bilan samarali bandlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik darajasini pasaytirish, fuqarolik jamiyati tarkibini mustahkamlash; inson huquqlariga rioya etish va ularni samarali amalga oshirish, shaxsning imkoniyatlarini to'la va har taraflama ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va gumanitar muammolarni hal qilishga katta ta'sir ko'rsatadi"[5:13].

Harbiy madaniyat shakllanishi harbiy ta'limning o'rni muhim hisoblanadi. Chunki, harbiy madaniyat-bu harbiy jamoada yaratilgan va faoliyat ko'rsatadigan rasmiy va norasmiy madaniyatlar majmui bo'lib, ularning har biri moddiy va ma'naviy tarkibiy qismlardan, shu jumladan

qiyamat-me'yoriy, ma'naviy, mafkuraviy va ramziy elementlardan iborat bo'lib, harbiy faoliyatni rag'batlantirish va tartibga solishni ta'minlaydi. Ba'zi tadqiqotlarda harbiy madaniyat harbiy fanning bir qismi, ya'ni o'qitish va tarbiyalash jarayonida xodimning ongida mustahkamlangan bilimlar to'plami sifatida e'tirof etiladi. "XVIII asr oxiriga kelib harbiy tarix va harbiy fan harbiy bilimlardan mustaqil fanlar sifatida paydo bo'ldi. Shu bilan bir qatorda uning nazariyalari, ta'limotlari, shuningdek, urush va armiya bo'yicha amaliy tadqiqotlar kiritila boshlandi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida pedagogika va sotsiologiya, urushning umumiy nazariyasi, strategiya va taktika nazariyalari, armiya qurilishi, kadrlar tayyorlash va o'qitishning aniq farqlari ajratila yuoshlandi"[6]. Ko'rinib turibdiki, yoshlarni harbiy madaniyatini oshirish uchun ularni o'qitish, ularni muayyan normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirish an'anaviy ravishda olingan bilimlarning bir qismi ekan.

"Ilmiy-pedagogik tahlillar va emperik o'rganishlarimiz, oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning mavjud kasbiy tayyorgarlik darajasi bugungi zamonaviy sharoitda ularning kasbiy mahorati va kompetentligiga qo'yiladigan talablar tizimiga to'la mos kelmasligini ko'rsatdi. Shu boisdan, tadqiqotlar davomida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligi tuzilmasi aniqlandi. Mazkur tuzilmada bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni tayanch kasbiy kompetensiyalar (ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy), kasbiy shaxsiy sifatlar (strategik mobillik, tezkor-taktik moslashuvchanlik, harbiy emotsional barqarorlik, tolerantlik, vatanparvarlik) elementlari, harbiy-kasbiy kompetensiyalar, shuningdek, kreativlik darajasini o'zida aks ettiruvchi sohaga oid integral kasbiy ko'nikmalarning o'zaro aloqadorligida takomillashib borishi tavsiflandi"[7:15]. Bundan ma'lum bo'ladiki, harbiy madaniyatni shakllantirishda ta'lim yetakchi o'rinda turar ekan.

Soha mutaxassisleri fikricha hozirgi globallashuv jarayoni yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullaridan samarali foydalanib o'qitishquyidagi usullardan iborat.

1. Targ'ibot usuli. Vatanparvarlikning tarbiyaviy-axloqiy mazmuni va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berishdan iborat. Shu bois harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarga sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish, ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

2. Jamoaviylik usuli. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizning umumiy jangovar shayligi birlashma, qo'shilma, qism va bo'linmalarning jangovar shayligi darajasi bilan belgilanadi. Harbiy bo'linmalar o'z ichki

tuzilmasiga ko'ra, faoliyat yuritishi qat'iy belgilangan ijtimoiy guruhni ifodalab, harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari va ular o'rtasidagi xizmat munosabatlari, ichki tartib-qoidalar, mansabdor shaxslarning majburiyatlari, kundalik hamda maishiy sharoitlar, harbiy xizmatchilarni ishga joylashtirish, ichki xizmatni olib borish masalalari Intizom hamda Ichki xizmat Nizomlarining asosiy holatlarida qat'iy belgilab berilgan.

3. An'anaviylik usuli. Harbiy an'ana armiyada harbiy xizmat jarayoni jangovar vazifalarni bajarish, shaxsiy tarkibni tayyorlash, harbiy xizmatchilarning kundalik turmushi bilan bog'liq bo'lgan, tarixan shakllangan, avloddan avlodga o'tuvchi g'oya, qoida, urfodat, xulq-atvor me'yorlarida namoyon bo'ladi. Qurolli Kuchlarda harbiy an'analar tizimi harbiy faoliyatning asosiy uch sohasini: jangovar an'analar; harbiy turmush an'analar; ta'lim-tarbiyaviy an'analarni qamrab oladi.

4. Qadriyatlar ustuvorligi usuli. Harbiy xizmatchilarda milliy qadriyatlarga, ilg'or an'analarga, axloqiy tamoyillarga, yuksak madaniyatga sodiqlik kabi insoniy fazilatlarini hosil qilmasdan turib vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib bo'lmaydi. Chunki O'zbekistonning qariyb 30 yillik mustaqil taraqqiyot yo'liga nazar tashlansa, vatanparvarlikni ro'yobga chiqarish, mard va jasur avlodni voyaga yetkazishga oid keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi ham Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga befarq bo'lmagan avlodni shakllantirishdan iborat. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar pragmatik asos bo'lib xizmat qiladi.

5. Zamonaviylik usuli. Qiyinchiliklar, to'siqlar, nomutanosibliklar, hatto jinoyiy harakatlarning oshib borishi ham sof vijdonli kishi qalbida Vatan tuyg'usini, agar u chuqur e'tiqodga aylangan bo'lsa, o'chirolmaydi. Rang-barang maqsad va manfaatlariga ega ijtimoiy guruhlar mavjud ekan, umummaqsadni turlicha, goho bir-biriga zid tarzda idrok etish ham saqlanib qoladi. Yangi-yangi avlodlarning tug'ilishi, hayot sahnasiga chiqishi jamiyat oldiga yangi-yangi muammolarni ko'ndalang qo'yaveradi; aynan ushbu uzluksizlik, tadrijiylik ijtimoiy hayotning ham uzluksiz, tadrijiy davom etishini ta'minlaydi"[8:6]. Bundan tashqari harbiy pedagogika pedagogikaning ko'pgina boshqa sohalaridan yuqori ma'naviy-ruhiy sifatlarni, tayyorgarlik, qobiliyat va qobiliyatni talab qiladigan mas'uliyatli vazifalarni hal etish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya, o'qitish, ta'lim, o'qitish ob'ektlarining (sub'ektlarining) haqiqiy harbiy kasbiy faoliyatga bevosita jalb etilishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 8-noyabrdagi "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi" VMQ-591-son Qarori "mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o'tashga tayyorlash ishlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida"[9] qabul qilindi. Bu esa harbiy madaniyat shakllanishi va uning ta'limdagi o'rni qo'yidagi muhim jihatlari bilan amalga oshirilishi uchun chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarni pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini qo'yadi.

Xususan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani" Milliy o'quv dasturiga ko'ra "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv predmetini o'qitishda o'quvchilarga harbiy qasamyod, harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarini va amaliy ko'nikmalar, shuningdek, harbiy chiniqish, ruhan bardam bo'lish, fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo'nalishidagi fanlari orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida yegallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg'ulotlarni o'zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda amaliy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talafuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur.

Fanlarni o'qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

**O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini** shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

**Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini** shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat"[10:6]. Natijada yoshlarda vatanga xizmat qilish

uchun zarur bo'lgan kompetensiyalari shakllanishga sabab bo'ladi. Mazkur jihatlar, o'z navbatida, harbiy ta'lim muassasalari oldiga intellektual jihatdan yetuk, strategik va tahliliy fikrlashga qodir, kasbiy kompetentligi yuqori darajada shakllangan yoshlarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish bilan bog'liq ustuvor vazifalarni qo'yadi. Emperik izlanishlar shundan dalolat berdiki, harbiy ta'lim tizimidagi fan dasturlari hamda ishchi o'quv dasturlarini amalga tadbirig'i bo'lajak yoshlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishdagi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori (267-son, 29.06.2023 y.) qabul qilindi. Qaror bilan 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" amalga oshirishga xizmat qiladi.

"Konsepsiyada belgilangan tadbirlar quyidagi 5 bosqichda amalga oshiriladi:

- 1-bosqich (3–7 yosh);
- 2-bosqich (7–10 yosh);
- 3-bosqich (11–17 yosh);
- 4-bosqich (18–21 yosh);
- 5-bosqich (22–30 yosh).

Qarorga ko'ra, jumladan, quyidagilar amalga oshiriladi;

*Birinchi*dan, mahallalardagi kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalardagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida "Ezgu amal" sahovat karvonlari tashkil etiladi;

*Ikkinchi*dan, "Amir Temur izdoshlari", "Jaloliddin Manguberdi vorislari" harbiy-sport musobaqalari o'tkaziladi;

*Uchinchi*dan, yoshlar o'rtasida 4 bosqichda (mahalla – tuman – viloyat – respublika) "Shunqorlar" hamda "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalari o'tkaziladi"[11].

Harbiy madaniyatda ta'lim deganda, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirish, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonini anglaymiz. Bu ta'lim jarayoni harbiy xizmatning o'ziga xos talablari va harbiy xizmatchilarning o'ziga xos turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin:

Maqsadlilik: Harbiy ta'limning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilarni yoki yoshlarni kasbiy mahoratga ega bo'lishin ta'minlash, o'z vatanlarini himoya qilishga tayyorlashdir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Vatanparvarlik fenomeni noyob, kam uchraydigan hodisa hamda buyuk, daho yo'l boshchi, yetakchiga nisbatan ishlatilishi haqidagi fikr ilgari suriladi. Shu ma'noda, vatanparvarlik fenomeni (yunoncha phainomenon – yuz beruvchi degan ma'noni anglatib, mohiyat yoki hodisaning ifodasi yohud namoyon bo'lishidir)ning ma'naviy-axloqiy

merosdagi in'ikosi ijtimoiy-tarixiy hayotda tub burilish yasagan, xalqning erki, ozodligi va kelajagini ta'minlash yo'lidagi kurashning yo'l boshchisi hamda bu faoliyatning axloqiy namunasi sifatida namoyon bo'lgan shaxslar siyosati bilan belgilanadi. Yovuz bosqinchilar va istilochilarga qarshi kurashgan Shiroq, Spitamen, Mahmud Torobiy, To'maris, malika Qabaj xotun kabi qahramonlar vatanparvarlik fenomeni timsollaridir"[12:13].

**Kasbiy yo'nalish:** Harbiy ta'lim harbiy xizmatning turli yo'nalishlariga moslashtirilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan. "Olimlarning fikricha, inson faoliyati davomida eng zarur bo'lgan kompetensiyalar ichida kommunikativ kompetensiya alohida ahamiyat kasb etib, u boshqa kasbiy kompetensiyalarni egallash uchun ham xizmat qiladi. Umuman olganda, ta'lim va tarbiya sohasida bugungi kunda keng joriy qilinayotgan kompetensiyaviy yondashuv ushbu jarayonning samarali natijasini ta'minlash uchun xizmat qiladi"[14:5].

**Amaliylik:** Harbiy ta'limda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Faylasuf va notiq sitseronning ta'kidlashicha, "notiq amaliy ko'nikma va malakani aynan katta yig'ilishlarda (maydonda, Rim shahrining siyosiy va madaniy hayoti markazida) shakllantirsa"[15:81], Kvintilian uchun esa ta'lim tizimi markazi – bu ritorika maktablaridir. Kvintilianning "Ritorik nasihatlarining 12 kitobi"da "fuqarolik va sud notig'ini tarbiyalashning mukammal tizimi taqdim etiladi. Notiq tarbiyasi jismoniy va ruhiy tarbiyaga bo'linib, o'z ichiga jismoniy madaniyat va tillarni o'zlashtirishni, huquq va falsafani, nutqni ixtiro qilish, uni tahlil qilish kabi amaliy mashg'ulotlarni qamrab oladi"[13:78]. Kvintilianning ushbu "Nasihatlari" asosida ta'lim va tarbiya tizimi ishlab chiqildi va pedagogika fanining ilmiy asoslarining yaratilishiga turtki bo'ldi.

**Intizom va tartib:** Harbiy ta'lim jarayonida yoshlarni qat'iy intizom va tartibga rioya qilishni talab etadi. Bu esa pedagogik muloqot ta'lim jarayonini tashkil etish omili sifatida asosan ikki modelda amalga oshiriladi:

1. An'anaviy model – o'quv-intizomiy.
2. Shaxsga yo'naltirilgan.

"Muloqotning o'quv-intizomiy modeli XX asrning 70-yillarida shakllangan bo'lib, unga ko'ra o'quv jarayonining asosiy maqsadi o'quvchini bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga qaratilgan. O'zaro munosabatlarda "Menga qarab bajar" shiori ustun bo'lgan. Ushbu modelga xos xususiyatlarning asosida muloqotning avtoritar uslubi yotadi.

**Muloqot yo'llari:** pand-nasihat, tushuntirish, talab, po'pisa, jazo, baqiriq.

**Muloqot taktikasi:** diktat yoki g'amxo'rlik shaklda bo'ladi.

Shaxsiy pozitsiyaga rahbariyat va nazorat organlarining talablarini bajarish bo'lib, unda muloqotning bunday usuli bola shaxsiga salbiy ta'sir etadi, unda

mustaqil bilim olish ko'nikmalarining shakllanishiga monelik qiladi. Bunday uslubga asoslangan pedagogik jarayon bugungi talablarga javob bermay qo'ydi. O'quvchi ushbu jarayonning passiv ishtirokchisi sifatida asosan tayyor holda unga o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan ma'lumotlarni qabul qilib olish, esda saqlab qolish kabi samarasiz faoliyat bilan chegaralanib qolgan edi. Natijada unda yangi ma'lumotlarni mustaqil egallash, olgan bilimlaridan nostandart hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmas edi"[17:78].

**Jamoaviylik:** Harbiy ta'lim jarayonida harbiy xizmatchilar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, jamoaviy ruhda ishlashni o'rganadilar. Unga ko'ra, hamkorlik pedagogikasida o'quvchi va o'qituvchining o'zaro munosabati muloqot samaradorligini ta'minlashning garovidir - ikki kommunikant uchun umumiy bo'lgan yangi nimanidir ishlab chiqishdir. Pedagogik hamkorlik umumiy maqsadga va unga erishish istiqbollarini ko'rishga asoslangan. O'quvchining imkoniyatlariga ishonch birinchi o'ringa chiqishi kerak. Amerikalik faylasuf G.P. Graysning fikrlariga ko'ra, so'zlovchi va tinglovchining muvaffaqiyatli hamkorligi quyidagi qoidalar bilan ta'minlanadi:

1) *"Miqdor qoidasi:* "Sizning bayonotingiz kerak bo'lgandan ko'ra ko'proq (va kam bo'lmagan) ma'lumotni o'z ichiga olishi kerak. Hamma bilgan ma'lumotlarni aytish kerak emas"[18:52]. Mashhur olim D.I. Mendeleev shunday deb ogohlantirdi: "Faktlar bilan haddan tashqari yuklangan ma'ruza o'tinlar bilan to'lib – toshgan o'choqqa o'hshab o'cha boshlaydi". Axborot hajmini aniqlashda o'qituvchi semantik idrok qilish qonunlariga asoslanishi kerak: 7+2. Axborot birliklari sifatida semantik parcha yoki mikrotema hisoblanishi mumkin.

2) *Sifat qoidasi:* "Sizning so'zingiz haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qiling". Axborot sifatiga pedagogik qarashlar uning *taniqlilik* xususiyatini aniqlash imkoniyatini beradi. Tadqiqotchilar o'quvchi uchun axborotning ma'lumlik darajasining uch xil turini keltirib o'tadilar:

- 1 - darajali ma'lumlik - darslikda mavjud;
- 2 - darajali ma'lumlik – mutaxassisga ma'lum;
- 3 - darajali ma'lumlik - kamdan-kam hollarda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kamroq nufuzga ega bo'lgan o'qituvchilarning 9/10 qismi 1-darajali ma'lumotlarni beradi, ya'ni darslikni so'zlab beradi. Yuqori nufuzga ega o'qituvchilar esa 43 % gacha 2-darajali ma'lumotlarni beradi.

3) *Munosabatlar qoidasi:* mavzudan chetga chiqmang.

4) *Taqdimot uslubi qoidasi.* Graysning bu taqdimot uslubi bilan bog'liq. Bu diqqatni jalb qilish va uni saqlashga yordam berishi kerak. Nutq - bu harakat. Nutq vaqt va makonda chiziqli xarakterga ega. Bu o'qituvchi va o'quvchiining boshidan oxirigacha o'tishi kerak bo'lgan yo'li"[18:53] dir.

Harbiy madaniyat shakllanishi va uning ta'limdagi o'rnini harbiy xizmatga kirishdan oldin olib boriladigan ta'limni sifatini hamda harbiy xizmat davomida olib boriladigan ta'lim jarayonlarida namoyon bo'ladi. Buning asosiy sababi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi, "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunlarini, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o'tashni tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini asosiy talablarini, mohiyatini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalarini, harbiy xizmatning ahamiyatini, Vatanga qasamyodni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizom talablarining mohiyatini tushunish;

harbiy-vatanparvarlik ruhida, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish;

milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatani mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlar bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiya qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofida qilargalarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalari shakllantirish"[10:8] dan iboratdir. Bundan maqsad nafaqat jismoniy balki ruhiy baquvvat bo'lishni ta'minlashdir. Zero jahon tajribasi ham shundan dalolat beradi. Ya'ni "...Yaponiya Til va nutq dasturi yaponcha vatanparvarlik g'oyasini targ'ib qilib, harbiy ustunlik emas, intellekt ustunligi, notiqlik ustunligi, tartib-intizom va mehnatga munosabat ustunligiga asoslangandir. Bu o'z navbatida mamlakatni dunyoda ishlab chiqarish va savdo sohalarida birinchi o'ringa olib chiqdi"[13:30].

#### Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, Respublikamiz ta'lim tizimida ham bo'lajak mutaxassislarini mustaqil ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, ularda o'z Vatanga muhabbat, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish, madaniyatlararo bag'rikeng fuqaroni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilmoqdaki, bu uzluksiz ta'lim tizimida chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash fanini tadbiq etish, bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ va ritorik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Olib boriladigan ta'limning natijasida shaxsning harbiy madaniyati va kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa harbiy madaniyatda ta'limning muvaffaqiyatli xizmat qilishi, o'z vatanlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон траққиёт стратегияси. Тошкент. "Ўзбекистон". 2022. – Б 387.
2. Кун Т. Структура научных революций. М.: «АСТ», 2020. — С 89. (Умумий 320 с.)
3. Самадов А. А. Ўзгарувчан таълим парадигмаси шароитида ҳарбий таълим ўқитувчисининг касбий маҳоратини такомиллаштириш мазмуни. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 12) – Б 121.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган "Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция" Ватанпарвар газетасининг № 9 (2760) – сони, 2018 йил 2 март.
